

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

QADIMGI INITSIATSIYA MAROSIMINING BADIY TALQINI “YORILTOSH” ERTAGI MISOLIDA

Jamila ASQAROVA

filologiya fanlari doktori,

O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290692>

Annotatsiya: maqolada o‘zbek xalq sehrli ertagi hisoblangan “Yoriltosh” syujetida qadimgi initsiatsiya marosimining badiiy talqini haqida so‘z boradi. Shuningdek, ertakning viloyatlarda tarqalgan turli variantlari qiyosiy tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: ertak, initsiatsiya, qahramon, “Yoriltosh”, qiz, tosh.

Аннотация: В статье рассматривается художественная интерпретация древнего обряда инициации в сюжете узбекской народной волшебной сказки «Ёрилташ». Было также проведено сравнительное исследование различных версий этой сказки, распространенных в разных регионах.

Ключевые слова: сказка, посвящение, герой, «Ёрилташ», девушка, камень.

Abstract: The article examines the artistic interpretation of the ancient initiation rite in the plot of the Uzbek folk fairy tale "Yoriltash". A comparative study of various versions of this tale, common in different regions, was also conducted.

Key words: fairy tale, initiation, hero, "Yoriltash", girl, stone.

O‘zbek xalq sehrli ertagi hisoblangan “Yoriltosh” Xorazmda “Oltin beshik”, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Farg‘onada “Yoriltosh”, “Ochil, ochil qamishlar” nomi bilan mashhur.

Folklor arxivida saqlanayotgan va hali nashr etilmagan “Yoriltosh” [1] (Munisxon Toshpo‘latova Toshkent shahrida yashovchi Tojixondan 1939-yil yozib olgan) ertagida bir cholning uch o‘g‘li va uch qizi borligi, o‘rtanchi qiz boshini yuvayotganda bir tutam sochi suvga tushib ketishi, chol o‘g‘illaridan qay biri shu sochni suvdan topib chiqsa, qizni o‘shanga berishini aytishi bilan boshlanadi. Akasiga turmushga chiqmaslik maqsadida qizning uydan ketib, katta bir toshga kirib bekinishi ertakning barcha variantlarida uchraydi.

Ertakning bosh qahramoni qiz bo‘lib, syujet qizning bir tutam sochini suvga tushib ketishi bilan rivojlanadi. “Qadimgi tasavvurga ko‘ra, soch muqaddas hisoblangan. Ibtidoiy kishilarning tasavvurlariga binoan uzun va qalin soch magik qudrat manbayi deb tushunilgan. Ya’ni sochda ilohiy kuch, sehrli-magik qudrat mujassamlashgan” [9, 263]. Folklorshunos A.Musaqulov “Soch magiyasi bosh kabi

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

osmon g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun og‘zaki ijodda soch juda qudratli kult sifatida talqin qilinadi... Magiya hodisasiga ko‘ra, soch jonli va qudratlidir” [7, 109].

Ertakda soch, suv va tosh obrazining birga kelishi shunchaki tasodif emas. Sochning suvga tushib ketishi, sochni topib kelganga qizning berilishi, tosh qizni bekitishi, ukasi suv ichganda kiyikka aylanishi, kundoshlar tomonidan qizni hovuzdagi suvga itarib yuborilishi va suvostida qizning egiz tug‘ib, bir tomonida oltin, bir tomonida kumush beshik tebratishi kabi talqinlar qadimgi suv, tosh va soch kultlariga ishora qiladi.

Endi asosiy predmet sanalgan toshga kelsak. Animistik tasavvurlar keng tarqalgan davrlarda ibtidoiy odamlar tog‘lar va daryolar, adir va o‘rmonlar, tabiat hodisalarida ilohiy kuch mavjud deb anglaganlar. Ushbu ertakda badiiy ifodalangan qahramonning toshga yashirinish motivida tosh kulti bilan bog‘liq tasavvurlarning ba‘zi qoldiqlari saqlangan. Xalq tasavvuridagi bunday anglam izlari bugungi kungacha yashab kelmoqda. Masalan, Rishton tumanida “Toshkelinchak” nomli ziyoratgoh va shu nomdagi afsona keng tarqalgan. Unga ko‘ra, dushman qo‘liga tushmaslik uchun qochgan kelinchak xudodan o‘zini toshga aylantirib qo‘yishni o‘tinib so‘raydi. Uning duosi ijobat bo‘lib, cho‘kkalab o‘tirgan holda toshga aylanadi. Ushbu tosh haligacha ziyoratgohda saqlanadi va shakli aynan cho‘kkalab o‘tirgan qiz qomatiga o‘xshash.

Bu xildagi afsona zamirida “Yoriltosh” ertagida ifodalangan qahramonning toshga yashirinish motivida qadimgi tosh kultiga tegishli tasavvurlar izlarini ko‘rish mumkin. Dushman – aka, toshga yashiringan qiz – kelinlikka nomzod, saqlovchi – tosh. Xalq ongida qizning ruhi toshga o‘tib qolgani, tosh uni ta‘qibdan qutqargani uchun aziz hisoblanadi.

Ertakda ham dushman – aka, ta‘qibdan qochgan qiz – kelinlikka nomzod, saqlovchi – tosh. Tosh ochilib qizni nafaqat asraydi, balki yana yorilib uni keyingi voqealarga yo‘llaydi. Shu o‘rinda, tosh aslida qizning o‘lgan onasi ruhi makon topgan joy sifatida namoyon bo‘ladi va qizini dushman ta‘qibidan asraydi. Bundan tashqari, toshni qizning tug‘ishgan singlisi (ba‘zi variantlarda ukasi) ga ochilishi ham uning homiy ruhlar makoni sifatida, makondagi ruhlar xayrixohligining ifodasi sifatida qarashga imkon beradi.

Tosh turkiy xalqlar folklor an‘analarida ajdod, ma‘lum bir urug‘, qabila topinuvchi fetish sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, xakaslar “ona tosh” deb atalgan tosh xaykallarga har yili qurbonlik keltirganlar [6, 93]. Sehrli-sarguzasht tipidagi kenja botir haqidagi (“Cho‘loq bo‘ri”, “Bulbuligo‘yo”, “Abdullaxon”, “Semurg”)

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ertaklarida doimo uch tomonga ketgan yo‘l keladi va bu haqda chorrahada turgan tosh xabar beradi. Tosh – yozuvli buyum bo‘lib, qahramonni muayyan masofaga yuborishga xizmat qilib, kelasi manzil haqida xabar beruvchi funksiyasini bajaradi. Uch yo‘lning boshida turuvchi va uch aka-ukaga yo‘l ko‘rsatuvchi toshni ularning onasi ruhi qo‘nim topgan makon timsolidir. Chunki ertakda qahramonlarning onasi haqida xabar berilmaydi. Ular ko‘pincha podsho, chol va boyning o‘g‘illari bo‘lib keladi.

J.Freyzerning fikricha, “tosh kulti genezisining omillaridan biri ibtidoiy odamlarda o‘lik odamlarning ruhi, ajdodlar va qabila xudolari ruhlari toshlarda yashaydi, degan g‘oyaning mavjudligida edi” [10, 255]. Olimning fikrlaridan qadimgi tosh kulti bilan bog‘liq qarashlar bugungi kunda ham odamlar hayotida ahamiyatga egaligini qabrlar ustiga qo‘yilgan toshlar misolida ko‘rish mumkin. Ma‘lumki, paleolit (tosh asri) davrida ibtidoiy odamlar hayotida tosh muhim obyekt bo‘lib, ish quroli va dushmandan himoyalaniish vositasi hisoblangan. Demak, ertakdagi tosh obrazi tog‘ kulti bilan bog‘liq dunyoqarash natijasida paydo bo‘lgan. Tosh – tog‘ – tuproq unsuri bir tizimga mansub bo‘lsa, tosh va suv qarama-qarshi unsur bo‘lsalar-da, bir birisiz mavjud bo‘la olmasliklari qizni toshdan chiqqandan so‘ng suv xususiyatlarini bilishida ko‘rinadi. Shu o‘rinda, suvga qiz ongining ramzi sifatida ham qarash mumkin. Ukasi suvdan ichsa, kiyikka aylanishi haqidagi tushuncha qizning ongida mavjud bo‘lib, ongdagi axborot suvga o‘tkazilganda u mavjudlik kasb etadi. Qizning ongidagi o‘zgarishlar toshdan chiqqandan keyin paydo bo‘lishi esa endi uning oddiy qiz emas, initsiatsiyadan o‘tgan, magik qudratga ega qahramonga aylanganini bildiradi. Qiz qayta tug‘ilganda (toshdan chiqqanda) yangi qobiliyat – suvning xususiyatlarini bilishi muhim ahamiyatga ega.

Xorazm ertaklarini tadqiq qilgan olim J.Yusupov “Oltin beshik” ertagidagi “Toshga kirib g‘oyib bo‘lgan qahramon sochining tashqarida qolishi jonning sochda mavjud bo‘lishi haqidagi animistik miflarga bog‘liq motivdir” [12, 73], degan fikrni bildiradi. Sochning toshdan tashqarida qolishini qizning tirikligi belgisi sifatida tushunish mumkin.

Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan “Ochil ochil qamishlar” variantida chol va kampirning bitta qizi bo‘lib, kampir o‘lgach, o‘gay ona qo‘lida qolgan qizni o‘gay akasiga bermoqchi bo‘ladilar. Qamishzorga qochishni qizga sigiri maslahat beradi. Ertakning boshlanishi “Podachining qizi” nomli ertak bilan o‘xshash bo‘lsa-da, qamishzorga bekinishi va toshni o‘rnida qamishlar uni yashirishi “Yoriltosh”ga mos. Ushbu variantda qizni asrovchi homiy timsoli – qamish. Bu ham o‘lgan onaning

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

homiy ko‘rishidagi shakli bo‘lib, bu variantda qamish tosh bilan almashgan. Ushbu ertakda suvning ishtiroki yo‘q. Qo‘shiqda o‘xshashlik mavjud:

Ochil, ochil qamishlar,
Bag‘ringizga olinglar.
O‘gay akam qo‘lidan,
Meni tez qutqaringlar.

G‘.Jalolov “ertaklarda ishlatilgan qo‘shiqlarning ma‘no, mazmuni ertak syujetiga bo‘ysundirilgan, ifodalanayotgan voqea mazmuniga tobe bo‘ladi” [4, 133], deya to‘g‘ri ta‘kidlaydi, ertakdagi qo‘shiq ham syujet voqealariga uyg‘un tarzda kuylanadi.

Folklor arxivida saqlanayotgan T.G‘oziboyev tomonidan to‘plangan Namangan viloyatidan yozib olingan “Yoriltosh” ertagida qizning akasiga turmushga chiqayotgani haqidagi xabarni musicha yetkazadi: “Bir kuni otasi oftobga bug‘doyni yoyib, qo‘riqlab o‘tir debdi. Musichalar kelib yegan ekan, qiz ularni haydasa, “o‘l, akasiga tekkan, o‘l”, debdi” [2]. Syujet davomi qolgan variantlar kabi ketsa-da, hovuzdan chiqqan xotinning podshoga aytgan she‘ri, ayniqsa, ahamiyatli:

Siz ketgach, kichik xotin,
Sakra bodom, sakra.
Sarhovuzni bo‘yiga olib keldi,
Sakra bodom, sakra.
Boshimni yuvib o‘tirib,
Sakra bodom, sakra.
Ikkala ko‘zimni o‘yib,
Sakra bodom, sakra.
Bosh tovoqqa soldi,
Sakra bodom, sakra.
O‘zimni hovuzga itardi,
Sakra bodom, sakra.
Hovuzga tushib ketdim,
Sakra bodom, sakra.
Eshiklari tillodan,
Sakra bodom, sakra.
Uy bino bo‘ldi,
Sakra bodom, sakra.
Fotima-Zuhra tug‘ildi,

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Sakra bodom, sakra.
Tillo, kumush beshik,
Sakra bodom, sakra.
Bino bo‘ldi,
Sakra bodom, sakra.
Fotima-Zuhra bilan,
Sakra bodom, sakra.
Kun kechirdim,
Sakra bodom, sakra.
Podshoh ovdan keldi,
Sakra bodom, sakra.
Kichik xotin deb,
Sakra bodom, sakra.
Uch kun birga turdi,
Sakra bodom, sakra.
Kiyik go‘sh tin yegim kelar,
Sakra bodom, sakra.
Dedi ayyor xotin,
Qassobni chaqirdingiz,
Sakra bodom, sakra.
Kiyik hovuzga borib,
Menga arz qildi,
Sakra bodom, sakra.
Yasovullar suvni sochdi,
Sakra bodom, sakra.
Men va bolalaringiz chiqdi,
Sakra bodom, sakra.
Boshimizdan o‘tgan savdo
Shu bo‘ladi,
Sakra bodom, sakra.

Ertakda malikaning gapi tugashi bilan bodom ham tugaydi, bu o‘rinda bodom malika gapining tasdig‘i sifatida tovoqdan sakrab-sakrab tushadi. Bodomning ayollikka xos xususiyatlari haqida ramzlar ensiklopediyasida shunday deyiladi: “O‘rta asrlarda bodom badachondagi homilaning ramzi sifatida talqin qilingan” [3]. Bu fikrni xalqda homilador ayollar tug‘ish vaqti yaqinlashgan sari bodom po‘stini

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

qaynatib ichsa, tug‘ruq jarayoni oson kechadi, degan qarash ham tasdiqlaydi. Bodom po‘sti bachadonga, mag‘zi bolaga o‘xshash tasvir ushbu talqinga asos bo‘lgan deyish mumkin. O‘zbek folklorida daraxtlar obrazini o‘rgangan G.Rustamovaning ta’kidlashicha, o‘tmishda qiz uzatilayotda uning ketishi oldidan hovliga bodom ko‘chati ekilgan. Bu bilan qizning borgan joyida erta gullaydigan bodomdek tez ildiz otishi, ya’ni bola-chaqali bo‘lib tez o‘rnashishi istagi ifodalangan [8, 22]. Ertakda ham malikaning boshqa meva emas, aynan bodomni tanlashi tug‘ruqdan yangi bo‘shangan ayolning o‘ziga xos ramziy ifodasi bo‘lib kelmoqda.

Ertakning Xorazm vohasida keng tarqalgan “Oltin beshik” variantida chol va kampirning ikki qizi va bitta o‘gay akasi borligi, u katta singilisiga uylanish niyatidaligini aytganda, ikki qiz qochib ketishi bilan boshlanadi. Singilning kiyikka aylanishi va katta opaning toshga yashirinishi voqealari bayon qilinadi. Bu ertak haqida Xorazm ertaklarining lokal xususiyatlarini o‘rgangan J.Yusupov “Oltin beshik” ertagidagi aka-singil o‘rtasidagi nikoh munosabatlari inest (ota-ona bilan farzandlar yoki aka-singil o‘rtasidagi g‘ayrishar‘iy nikoh – J.A.) odatining qoldiq holda epik motivga aylangan ko‘rinishi” [12, 79], deya ta’kidlaydi.

Shukur Sa’dulla nashrga tayyorlagan “Yoriltosh” ertagi qayta ishlangan bo‘lib, “Chalpak yoqqan kun” to‘plamida chop etilgan [11, 52]. Ushbu ertakda qahramonlar nisbatan zamonaviy bo‘lib, qizlarga ism qo‘yilgan. O‘gay ona zulmidan va o‘gay akaga turmushga chiqmaslik uchun uyidan qochishga majbur bo‘lgan opa-singilning sarguzashtlari hikoya qilinadi.

“Rafiq Mo‘min o‘zbek xalq ertaklari asosida “Yoriltosh” dramasi yaratdi. O‘zi sahnaga qo‘ydi. Uning yuqorida nomi tilga olingan “Yoriltosh” ertagi o‘sha vaqtda Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan bo‘lib, uning Toshkent versiyasi “Ochilqamish” deb nomlangan ekan. Ammo oradan bir necha yil o‘tgach bolalar shoiri Shukur Sa’dulla shu ertak asosida pesa yozganida uni Rafiq Mo‘min asari ta’sirida “Yoriltosh” deb atagan” [5,53].

“Yoriltosh” ertagining barcha variantlarida bosh qahramon – katta opa bo‘lib, uning boshdan kechirgan sarguzashtlari ertak syujetini tashkil qiladi. Barcha variantlarda qiz o‘z akasi (yetim yoki tug‘ishgan)ga turmushga chiqmaslik uchun qochadi.

Folklor arxivida saqlanayotgan “Yoriltosh” ertagini o‘zida an’anani saqlagan variant deb hisoblaymiz. Sababi unda ertakning qadimiy inonch, marosimlar va tabu bilan bog‘liq o‘rinlari to‘liqroq saqlangan.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

“Yoriltosh” ertagi va uning variantlarida obrazlar quyidagicha tizimlanadi: bosh qahramon – qiz, raqib – o‘gay ona, aka va kundosh, homiy timsoli – tosh (qamish). Ertakning singil yoki uka yo‘nalishi har doim opaga tobe bo‘lib, opani qutqaruvchi (hovuz ichidan) ko‘makchi vazifasida keladi.

Bugungi kunda sumalak pishirishda qozonga tosh solinishi va ayollar navbat bilan kovlaganda nechta tosh chiqishi o‘sha ayollarning shuncha farzand tug‘ishini go‘yoki bashorat qiladi. Demak, tosh qadimdan ayollik va onalik belgisi sifatida qadrlanib, hozirgi kungacha xalq og‘zaki ijodida yashab kelmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Folklor arxivi. Inv. №144. Aytuvchi: Tojixon. Yozib oluvchi: Munisxon Toshpo‘latova. – Toshkent, 1939.
2. Folklor arxivi. Inv. №1820/37-8/4. Yoriltosh ertagi. Aytuvchi: Qirg‘izboev Turg‘unboy, 61 yosh. Namangan viloyati, Yangiqo‘rg‘on tumani, Terakqator qishlog‘i. To‘plovchi: T.G‘oziboev. 1985-yil.
3. Бидерманн Г. Энциклопедия символов. https://archive.org/details/1996_Lexikon-der-Symbole/page/n1/mode/2up
4. Жалолов Ф. Ўзбек фольклорида жанрлараро муносабат. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 133.
5. Каримов Н. Рафиқ Мўмин // Водийнома. – Андижон, 2017. – №1. – Б. 53.
6. Кызласов И.Л. Гора – прародительница в фольклоре хакасов // Советская этнография. – Москва, 1982. – № 2. – С. 83-93.
7. Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 109.
8. Рустамова Г. Ўзбек фольклорида дарахтлар образи: генезиси ва бадий талкинлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. ... автореф. – Тошкент, 2022. – Б. 22.
9. Фрезер Дж. Золотая ветвь. – М.: Политиздат, 1980. – С. 263.
10. Фрезер Дж. Фольклор в Ветхом завете. – М.: Политиздат, 1985. – С. 255.
11. Чалпак ёққан кун. Эртақлар – Тошкент: Ёш гвардия, 1969. – Б. 52.
12. Юсупов Ж. Хоразм эртаги ва ҳаёт ҳақиқати. – Тошкент: Фан 1997. – Б. 79.
13. Юсупов Ж. Хоразм эртақларининг генезиси, асосий хусусиятлари ва поэтикаси: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 73.